SIRDARYO VILOYATI GULISTON SHAHAR HOKIMI
QARORI

2023 - yil 30 - dekabr 398-9-130-Q/23 Guliston shahar hokimligi

Guliston shahar “Do‘stlik” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida yo‘l belgilarini o‘rnatish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarorigaGuliston shahar IIBning 2023-yil 15-dekabrdagi 30/4583-sonli xati ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asoslanib,

QAROR QILAMAN:

1.Guliston shahar IIBning 2023-yil 15-dekabrdagi 30/4583-sonli xati ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Guliston shahar ichki organlari faoliyatini muvofiqlashirish boshqarmasi (B.Sayitnazarov), Guliston shahar IIB JXX YHXB (J.Naxanbayev)ga Guliston shahar “**Do‘stlik**” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi

Gulzor ko‘chasi (shaxar to‘g‘riqxonasi) oldidagi avtomobil yo‘l yonida yo‘l harakati qoidalarining ikkita 3.20. "Quvib o‘tish taqiqlangan", bitta 3.24. “"Yuqori tezlik cheklangan" 30”, ikkita 3.26. "Tovush moslamalaridan foydalanish taqiqlangan" yo‘l belgilarini o‘rnatish vazifasi yuklatilsin.

3. Shahar hokimligi matbuot kotibi (Sh.Yunusov), mazkur qarorni “Guliston yangiliklari” gazetasida nashr etilishini va shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish vazifasi yuklatilsin.

4. Shahar hokimligi devonxonasi (E.Nuriddinov), mazkur qarorni, qog‘oz va

elektron shakllarda bir kunlik muddatda tegishli davlat organlari hamda tashkilotlarga yetkazilishini tashkillashtirsin.

5. Ushbu qaror rasmiy manbalarda e‘lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari (A.Kamilov) zimmasiga yuklatilsin.

Guliston shahar hokimi **T.T.Dadabayev**